

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO‘LGAN BOLALARНИ TARBIYALASHDA
SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI**

Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti maxsus
pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi*
Tel: +998990222700
E-mail: Xurshidmaxmudov63@gmail.com

Annotatsiya. Oilada bolalarni ma‘naviy axloqiy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muammosi dolzarb masalalardan biridir, shuning uchun ushbu maqola orqali nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar oilasida, ma‘naviy- axloqiy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlarini, sharq mutafakkirlarining ma‘naviy merosi oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatini yoritishni afzal deb bildik.

Kalit so‘zlar. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bola, milliy qadriyat, ma‘naviy axloqiy tarbiya, nutqiy madaniyat, tarbiyaviy munosabat, nutqiy rivojlanish.

Аннотация. Проблема воспитания детей в семье на основе духовно-нравственных и национальных ценностей является одной из актуальных, поэтому через данную статью рассматриваются взгляды восточных и западных мыслителей на воспитание детей с нарушениями речи на основе духовно-нравственных и национальных ценностей, смыслах восточных мыслителей Мы посчитали предпочтительным выделить значение духовного наследия в духовно-нравственном воспитании детей в семье.

Ключевые слова. Ребенок с дефектом речи, национальная ценность, духовно-нравственное воспитание, культура речи, учебная установка, речевое развитие.

Abstract. The problem of educating children in the family on the basis of spiritual, moral and national values is one of the urgent issues, therefore, through this article, the views of Eastern and Western thinkers on the upbringing of children with speech impairment on the basis of spiritual, moral and national values, the meaning of Eastern thinkers We considered it preferable to highlight the importance of spiritual heritage in the spiritual and moral upbringing of children in the family.

Key words. A child with a speech defect, national value, spiritual and moral education, speech culture, educational attitude, speech development.

Bugungi kun farzandlarida milliy tuyg‘u, o‘z xalqiga, uning an’analariiga, tili va madaniyatiga muxabbat va hurmatni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalamaslik

jamiyat ravnaqiga, eng muhimi ertangi kunga e’tibor bermaslik demak, zero bunday ma‘naviy axloqiy sifatlar dastlab oilada ota-onalik ko‘magida shakllanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda oilada bolalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash masalasiga Xalqaro miqyosda imkoniyati cheklangan bolalarga o‘z imkoniyat va qobilyati darajasida maxsus yoki umuta‘lim muassasalarida ta‘lim berish, sog‘lom tengdoshlari orasida integratsiyalash tajribalari O‘zbekistonda ham keng targ‘ibot qilib kelinmoqda. Bu inavatsion ta‘limni malga oshirishda maktab va maktabgacha ta‘lim muassasalarining pedagoglari va ota –onalarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun xam oilada bolalarni ma‘naviy axloqiy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muammozi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Qomusning XVI- bobi oila xususiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda quyidagilar qayd etiladi: Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir xamda jamiyat va davlat muxofazasida bo‘lish xuquqiga ega. Nikoh tomonlarining ihtiyyoriy roziligi va teng xuquqliligiga asoslanadi. Ota onalar o‘z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota onalarning vasiyligidan maxrum bo‘lgan balalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi. Farzandlar ota onalarning nasl nasabidan va fuqarolik holatidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar [1, 36].

Onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza qilinadi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota onalari xaqida g‘amho‘rlik qilishga majburdirlar deyiladi.

O‘tgan asr pedagog olimlari Qadimgi grek faylasufi Demokrit (460- 370) bizning asrimizga qadar inson shaxsini rivojlanishida uning tabiat, tarbiyasi, atrofdagi odamlarning ta’siri katta ekanligi xaqida fikr yuritgan. Bizning asrimizdan (384- 322) asr avval yashagan Arestotel o‘zining ishlarida bolalarni oiladagi tarbiyasiga bag‘ishlagan. Bola tarbiyasini yo‘rgak davridan ota-onalik boslashi kerakligi xaqida yozgan bo‘lsa, Qadimgi Rim oratori, pedagok M.F. Kvintilian (42- 118); bola tug‘ilishidan 3 yoshgacha tarbiya vaqtiga 3 yoshdan 7- 8 yoshgacha oiladagi tarbiya to‘ldirilib boradi. Kvintilian: bu davrdagi tarbiya bolalik ta’surotlari esda saqlanib qoladi, u aniq, chuqur ta’surot qoldiradi. Faqat ota-onalik rivojlanish saboqlarini bolada tarbiyalaydi degan fikrlar o‘tgan asrlarda yashagan pedagok olimlar, faylasuflar asarlarida bayon etilgan [2, 96]. Ko‘p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki jamiyatning haqiqiy boyligi –inson, inson avlodidir.

Shuning uchun xam ajdodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o‘zbekning o‘zligini har tomonlama asrab-avaylab barkamol avlodlarni voyaga yetkazaib kelgan. Chunki har bir oqil insonning muqaddas vazifasi, hayotining ma‘nosи, qobil farzandlar o‘stirish, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, oilasiga, jamiyatga, vatanga sadoqatli bo‘lib tarbiyalashdan iboratdir. Chunonchi, bunday ma‘suliyatni bajarishda oila, ota-onalik muhim rol o‘ynaydi.

Darhaqiqat, biron-bir mutafakkir, alloma yo‘qki oila va oilada bola tarbiyasi xususida so‘z yuritmagan, o‘zlarining qimmatli maslahatlarini bermagan bo‘lsa.

Xalqimizning butun jahonga mashhur bo‘lgan Imom Buxoriy, At-Termiziyy, Forobiy, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, Ahmad Donish va Abdulla Avloniy kabi zabardast farzandlarining bevosita oila va farzandlar tarbiyasi, nutqiy rivojlanishi xususidagi fikrlarini o‘rganish va ularni amaliyatga tatbiq etish mavrudi keldi.

Sharq mutafakkirlarining ma‘naviy merosi oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, jamiyatni ham har tomonlama ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma‘naviy, ham madaniy rivojlantirishni muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda bu masalaga nechog‘lik chanqoqlik his qilinayotganligi tobora ravshanlashib bormoqda.

Shu boisdan xam keyingi paytlarda Sharq mutafakkirlarining hayotiga, faoliyatiga va ularning asarlariga bo‘lgan e’tibor va extiyoj tobora ortib bormoqda. Natijada qator tadqiqotlar, ilmiy-nazariy asarlar, qo‘llanmalar, risolalar yuzaga keldi.

Oilada bolalarga berilgan odob, yaxshilik bilan yomonlikni farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovvutni anglashga o‘rgatish lozim. Chunki odob vositasida inson o‘z jonini yomon xislatlardan asraydi, yoqimsiz ayblardan poklaydi, oqibatda chiroyli fazilatlari bilan o‘z xulqini tarkib toptirib boradi.

Ba’zida mutafakkirlar inson odobini eng chiroyli va ko‘rkam xulqqa ega bo‘lish desalar, ba’zida nafsi barcha kabix odatlardan tozalash xam deydilar.

Mutafakkirlar merosida oilada bolalarga singdiriladigan aql, obob, hayo, insonparvarlik asosiy axloqiy mezon sifatida qaraladi. Bunday axloqiy sifatlarni yoshlarda shakllantirishda asosoan hikmatlardan samarali foydalanish yaxshi natijalar berishni ta’kidlab, ular o‘z nasixatlarini, o‘gitlarini, rivoyatu - xikmatlari asosida bayon etishga xarakat qilishgan (Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy, Devoniy, Kaykovus, Abduraxmon Jomiy, Forobiy va boshqalar.) [3, 45].

Oilada bolalarni ma‘naviy –axloqiy tarbiyalashni juda erta, hatto go‘daklik davridan boshlagan ma’qul. Zero xalq iborasi bilan aytganda : “Sut bilan kirgan fe’l, jon bilan chiqar” deganlaridek, onadan bolaga go‘daklik, hatto chaqaloqlik davrida ko‘chgan barcha ijobjiy sifatlar to‘laligicha shakllanishi fanda isbotlangan. (N. Majidov, E. G‘oziev, SH.B. SHoumarov, A. SHonosirov, X. Xalimov).

Sharq mutafakkirlari asarlarining shuxrati nafaqat Markaziy Osiyoda, balki xorijiy mamlakatlarda xam keng yoyilgan bo‘lib, ko‘p tillarga tarjima qilingan. Jumladan, sharqshunos olim N.Lokoshin M. Qoshg‘ariyning “Adab assolihin” (“-Yaxshilar odobi” asarini 1985 yilda rus tiliga tarjima qildi va uni “Xoroshiy ton na Vostoke” nomi bilan atadi. SHuningdek, Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Axmad Yugnakiyning “Hibbat ul-xaqoyiq”, “Xaqiqatlar xadyasi” 12 asr) asarlari xam tarjima qilindi [2, 76].

Eng muhim axloqqa oid ko‘pgina asarlar umuminsoniy axloqiy nazariyaning xazinasiga qo‘shilgan katta hissa bo‘ldi. Shuning uchun ham bugungi kunda sharq mutafakkirlarining benazir asarlari pedagogika fani rivojlanishida metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar talqin etilishicha, sharq mutafakkirlari asarlarining tahlilining ko‘rsatishicha, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining deyarli barchasi Arastutning oila haqidagi g‘oyasiga qo‘shilgan holda uning mohiyatini, axloqiy tushunchalarining manbaini kishilarning turmush munosabatlari bilan, uning baxtga intilishlari bilan bog‘laganlar. Ularning fikricha, “Inson ehtiroslari-bamisolni kemani qoyaga olib borib uradigan yoki uni manzilga eltadigan qudratli shamol bo‘lsa, aql-his-havaslar kuchini yaxshi maqsadlarga xizmat ettiradigan darg‘adir” [3, 44].

Oila tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoni ham befarq qoldirmagan. U O‘zining ko‘plab asarlarida olada bola tarbiyasi, ularning salomatligi ,eng muhim mutafakkirlar ichida birinchi inson bo‘lib bola ruhiyatini o‘rganish asnosida tarbiyaviy munosabatda bo‘lish haqidagi fikrlarni ko‘tarib chiqadi. Uning merosida, ayniqsa, ayollar, birinchi o‘rinda turadi. Masalan, shunday asarlar jumlasiga “Ishorat”, “Donishnama”, “Xayy ibn Yaqzon”, “Salomon va ibsol”, “Tayr”, “Tibqonunlari”, “Tadbiri manzil” va boshqalarni kiritish mumkin. “Tadbiri manzil” asarining katta bir bobida oila va oilaviy tarbiya masalasida qimmatli fikrlar bildiradi [3, 97].

Ibn Sino oila va bola tarbiyasida ota-onan kim bo‘ishidan qat’iy nazar, ularning birinchi va eng muhim vazifasi bola tarbiyasidir, deydi.

Ibn Sino bolani ona emas, balki tarbiyachi tarbiyalagani ma’qul, chunki ona ko‘ngli bo‘shlik qilib bolasining nomaqbul harakatlarini ham sezmay qolishi mumkin, illo bu narsa bola tarbiyasining buzilishiga olib keladi, deydi.

Ibn Sino bolalarni oilada tarbiyalashda uning yoshligidan boshlab faqat yaxshi nutqiy madaniyatga o‘rgatishni, bu qiliq esa kelajakda uning xarakteriga aylanib, mustahkam irodali bo‘lib yetishishini ta’minlaydi deydi. Ayniqsa, ota-onan shaxsiy namunasi bola kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligini misollar asosida ko‘rsatib beradi. “Bolaning xulqini,-deydi olim,-mu’tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak, unga esa bolaning qattiq g‘azablanishidan, qo‘rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi”,-deydi.

SHarqda o‘zining daho asari “Qutadg‘u bilig” bilan mashhur bo‘lgan mutafakkirlardan yana biri Yusuf Xos Xojib insonga xos eng yaxshi sifatlar va xusuiylatlarni targ‘ib etadi.

Yusuf Xos Xojib inson bolasi hayotda nimaiki yaxshilikka erishsa, faqat bilim tufayli erishish mumkin deb: “Bilim agar o‘ylab ko‘rilsa, misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan insonni tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-maqsadlariga erishadi”-deydi.

“Qutadg‘u bilig”da komil inson xaqida gapirilar ekan, uning kamomloti yo‘lidagi qator belgilar ko‘rsatib o‘tiladi. Asarning e’tiborli joyi shundaki, mazkur asar farzandlarimiz ma‘naviy kamolotida salmoqli hissa qo‘sadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining ma‘naviyatida millatning o‘tmishi, hozirgi kuni ifodalanishi bilan birga, oilaviy hayot uchun, farzandlar tarbiyasi hamda nutqiy munosabatlarni to‘g‘ri shakllanishi uchun u muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Chunki, bolalarimiz ana shu ko‘zga ilinmas his-tuyg‘u va ong, ajdodlar xotirasi va uzviyligi ta’sirida, ona suti, ona allasi, ona o‘giti, namunasi, ta’siri asosida ma‘naviy ozuqa tarbiya oladi. Bularning barchasi ma‘naviyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махмудова Н.М., Московкина А.Г. «Семейное воспитание детей с отклонениями в развитии». -М:Владос.2004. 36 с
2. Nurmuxamedova L.SH. Oilada yordamga muxtoj bo‘lgan bolalarni tarbiyalash, Toshkent, TDPU, 2008. 96 b
3. Inamova. M. “Oilada bolalrning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi” Toshkent, TDPU, 2018. 44 b
4. Internet ma’lumotlari, New- clinica.ru.